

**XALQARO SHARTNOMALAR (BERN KONVENTSIYASI,
BUTUNJAXON INTELLEKTUAL MULK TASHKILOTI MUALLIFLIK
HUQUQI SHARTNOMASI, TRIPS KELISHUVI) VA ULARNING
KOMPYUTER DASTURLARINI HIMOYA QILISHDAGI O'RNI**

Otabayev Usmonbek

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya: ushbu tezis xalqaro shartnomalar, xususan, Bern konvensiyasi, Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) mualliflik huquqi shartnomasi va TRIPS kelishuvining kompyuter dasturlarini huquqiy himoya qilishdagi o'rnini tahlil qiladi. Tadqiqotda kompyuter dasturlarining mualliflik huquqi obyektlari sifatida tan olinishi va ularni xalqaro miqyosda muhofaza qilishning huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ushbu shartnomalar milliy qonunchiliklarga ta'siri va amaliyotdagi samaradorligi ham o'rganiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur xalqaro hujjatlar kompyuter dasturlari mualliflariga global miqyosda huquqiy kafolatlar berib, intellektual mulkni himoya qilishni kuchaytiradi, ammo amaliy ijro masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar. Bern konvensiyasi, TRIPS kelishuvi, WIPO mualliflik huquqi, kompyuter dasturlari, mualliflik huquqi, intellektual mulk, huquqiy himoya.

Kirish

Kompyuter dasturlarini (dasturiy ta'minotni) huquqiy himoya qilish masalasi jahon miqyosida mualliflik huquqi (copyright) tizimining muhim qismiga aylangan. Dastlab xalqaro huquqiy hujjatlarda kompyuter dasturlari to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan dasturlar ham "adabiy asar" sifatida mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi lozim degan yakdil xulosaga kelindi.

Bugungi kunda bir qator muhim xalqaro shartnomalar va kelishuvlar kompyuter dasturlarining mualliflik huquqi obyektida tan olinishi va himoya qilinishini belgilab bermoqda. Jumladan, Bern konvensiyasi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi hamda Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlariga oid kelishuv (TRIPS kelishuvi) kompyuter dasturlarini muhofaza qilish borasida asosiy xalqaro me'yorlarni o'rnatadi. Ushbu qismda aynan shu xalqaro shartnomalarning mazmuni va ularning kompyuter dasturlarini himoyalashdagi o'rni batafsil tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Bern konvensiyasi (1886-yilda qabul qilingan, 1971-yilda Parij akti tahririda qayta ko'rib chiqilgan) mualliflik huquqining eng qadimgi va asosiy xalqaro shartnomalaridan biridir. Ushbu konvensiya barcha turdagi "adabiy va badiiy asarlar" mualliflariga ularning asarlari ustidan muayyan huquqlar berilishini kafolatlaydi.¹ Bern konvensiyasining 2-moddasiga binoan "adabiy va badiiy asarlar" tushunchasi "adabiyot, fan va san'at sohasidagi har qanday ijodiy mahsulot, ifoda usuli yoki shaklidan qat'i nazar" degan keng ta'rif bilan izohlanadi. Ya'ni, asar qaysi shaklda bo'lishidan qat'i nazar (kitob, qo'lyozma, musiqa, rasm va hokazo) mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi lozim. Garchi Bern konvensiyasining matnida kompyuter dasturlari to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmagan bo'lsa-da, aynan mana shu keng qamrovli ta'rif tufayli kompyuter dasturlari ham zamonaviy talqinda adabiy asarlar turkumiga kiritiladi.

Bern konvensiyasi doirasida mualliflik huquqining asosiy prinsiplari joriy etilgan bo'lib, ular kompyuter dasturlariga nisbatan ham tadbiq etiladi. Birinchi

¹ Bern konvensiyasi (Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works), 1886-yil, oxirgi o'zgartirish 1971-yil (Parij).

navbatda, milliy rejim prinsipi (national treatment) amal qiladi: ya'ni har bir a'zo davlat boshqa a'zo davlatlar mualliflariga o'z fuqarolarinikiga teng huquqiy himoya taqdim etishi lozim. Ikkinchidan, avtomatik himoya prinsipi o'rnatilgan: asar mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi uchun uni biror rasmiy ro'yxatdan o'tkazish shart emas (Bern konventsiyasiga a'zo davlatlar mualliflik huquqini tan olishda asarning yaratilgan fakti va mualliflikka ega ekanligini e'tiborga oladilar). Bu prinsiplardan ko'zlangan maqsad – mualliflik huquqini xalqaro miqyosda soddalashtirilgan va yagona tartibda qo'llashdir. Kompyuter dasturlariga nisbatan ham ushbu qoidalar muhim ahamiyatga ega: dastur muallifi o'z dasturini har bir davlatda alohida ro'yxatdan o'tkazmasdan ham, Bern konventsiyasiga a'zo ko'plab mamlakatlarda muhofaza oladi.

Bern konventsiyasining asarlar mualliflariga beradigan asosiy mutlaq huquqlari (exclusive rights) qatoriga asarni ko'paytirish (reproduksiya) huquqi, asarlarni tarjima qilish va moslashtirish (adaptatsiya) huquqi, jamoatchilikda ijro etish huquqi, asarni tarqatish huquqi kabi huquqlar kiradi. Ushbu huquqlar ro'yxatida ham kompyuter dasturlari bevosita aytilmagan bo'lsa-da, ko'paytirish huquqi va moslashtirish (adaptatsiya) huquqi aynan dasturiy ta'minotni himoya qilish uchun eng dolzarb hisoblanadi. Ko'paytirish huquqi dastur nusxalarini muallif roziligisiz ko'chirishni man etadi – bu esa dasturlarni noqonuniy nusxalash (qaroqchilik)dan himoyalashning asosidir. Moslashtirish huquqi esa dasturga o'zgartirishlar kiritish, uni boshqa tilda (masalan, yuqori darajadagi dasturlash tilidan mashina kodigacha) tarjima qilish, yaxshilash yoki boshqa shaklga o'tkazishni muallif iznisiz taqiqlaydi. Shu tariqa, agar dastur Bern konventsiyasi doirasida “adabiy asar” deb e'tirof etilsa, u holda uning egasi konventsiyaga a'zo

barcha davlatlarda ushbu huquqlardan foydalangan holda o'z dasturini himoya qila oladi.

Tarixiy nuqtai nazardan, dastlab ba'zi mamlakatlarda kompyuter dasturlari huquqiy muhofazasi mavhum bo'lgan. Ayrim davlatlar dastlab dasturlarni patent yoki tijorat siri orqali himoyalashga urinib ko'rgan bo'lsa-da, mualliflik huquqi usuli eng qulay va universal yo'l sifatida tan olindi. 1980-yillarga kelib AQSh, Yevropa mamlakatlari va boshqa ko'plab davlatlar o'z milliy mualliflik huquqi qonunchiligiga kompyuter dasturlarini kiritib, ularni adabiy asar sifatida muhofaza qila boshladilar. Bern konventsiyasi a'zo davlatlarga asarlar toifalarini belgilashda ma'lum erkinlik beradi, lekin umumiy qoidaga ko'ra dasturlar ham intellektual ijod mahsuli sifatida himoyalaniishi kerak. Masalan, AQShda 1983-yildagi Apple Computer, Inc. v. Franklin Computer Corp. ishida apellyatsiya sudi kompyuterning BIOS dasturi mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi mumkinligini tasdiqladi va dasturning mashina kodi (obyekt kodi) ham manba kodi kabi mualliflik huquqi muhofazasiga ega ekanligini ochiq aytdi. Ushbu qaror dasturlarni himoyalash borasida muhim huquqiy signal bo'ldi va boshqa ko'plab yurisdiksiyalarda ham dasturlarni adabiy asar deb bilish amaliyoti qaror topdi.

Shu bilan birga, Bern konventsiyasi dasturlar himoyasiga doir ayrim cheklov va mustasno holatlarni nazarda tutishi mumkin. Konventsiya 9-moddasining 2-xatboshisida mashhur uch bosqichli test (three-step test) keltirilgan bo'lib, unga ko'ra a'zo davlatlar mualliflik huquqiga qonuniy istisnolarni faqat (1) maxsus alohida hollarda, (2) asarning normal iqtisodiy ekspluatatsiyasiga putur yetkazmaydigan tarzda va (3) muallifning qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazmaydigan holdagina joriy eta oladi. Bu qoida dasturlar uchun ham tatbiq

etilishi mumkin, masalan, ta'lim yoki ilmiy tadqiqot uchun dastur kodidan kichik parchalarni foydalanishga ruxsat beruvchi istisnolar shu tamoyilga asoslanishi lozim. Biroq Bern konventsiyasining o'zi maxsus dasturlar bo'yicha qandaydir aniq istisno yoki qoidalarni belgilamagani sababli, kelgusida paydo bo'lgan noaniqliklar yangi xalqaro shartnomalarda to'ldirildi.²

Umuman olganda, Bern konventsiyasi kompyuter dasturlarini himoyalashning xalqaro huquqiy poydevorini yaratib berdi. U dasturlar mualliflariga ham asarlarining boshqa davlatlarda himoyalashiga kafolat beruvchi milliy rejim tamoyilini, ham mualliflik huquqining asosiy mutlaq huquqlarini taqdim etdi. Shu bois, agar biron dastur Bern konventsiyasiga a'zo davlatda mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa, u holda boshqa a'zo davlatlarda ham ushbu dastur muallifi kamida konventsiyada belgilangan minimal himoya muddatlari (odatda muallif vafotidan keyin 50 yil) va huquqlar doirasida himoya oladi. Biroq 1990-yillarga kelib, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi muammolar (raqamli shaklda asarlarni tez tarqatish imkoniyati, dasturlarni raqamli ko'paytirish va tarqatish, internet orqali mualliflik obyektlaridan foydalanish kabi) Bern konventsiyasida to'liq qamrab olinmagan edi. Shu sabab, 1990-yillar o'rtalarida ikkita muhim xalqaro hujjat – TRIPS va Butunjaxon Mualliflik huquqi Shartnomasi – qabul qilinib, dasturlar himoyasini yanada aniqroq va majburiyroq tarzda tartibga soldi.

TRIPS kelishuvi va kompyuter dasturlarining muhofazasi

TRIPS kelishuvi (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights) 1994-yilda Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) doirasida imzolangan bo'lib, u

² C. Geiger. "Software as a Copyright Work," IIC - International Review of Intellectual Property and Competition Law, Vol. 45, 2014.

intellektual mulk huquqlarini (shu jumladan mualliflik huquqini) savdo tizimining ajralmas qismiga aylantirgan. TRIPS kelishuvining ahamiyati shundaki, u deyarli butun dunyo davlatlarini qamrab oluvchi WTO tizimi orqali intellektual mulk standartlarini majburiy kuchga ega xalqaro majburiyat darajasiga olib chiqdi. TRIPS kelishuvining 9-moddasi davlatlar Bern konventsiyasining 1–21-moddalariga (6-bis moddasi – shaxsiy huquqlar bundan mustasno) amal qilishi shartligini belgilaydi.³ Boshqacha aytganda, TRIPS ga a'zo har bir davlat Bern konventsiyasida nazarda tutilgan mualliflik huquqi normalarini (axloqiy huquqlardan tashqari) o'z milliy qonunchiligida joriy etishi lozim. Natijada, hatto Bern konventsiyasiga kirmagan WTO a'zolari ham Bernning asosiy qoidalariga bo'ysunadigan bo'ldi. Bu holat kompyuter dasturlari himoyasi uchun ham muhim edi, chunki TRIPS orqali dasturlarni muhofaza qilish talablari global darajada qamrab olindi.

TRIPS (Intellektual mulk huquqlarining savdo-sotiq bilan bog'liq jihatlari) kelishuvi 10-moddasi bevosita kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalarining mualliflik huquqi bilan himoyalaniishiga bag'ishlangan. Ushbu moddaning 1-bandi quyidagicha qoida o'rnatadi: "Kompyuter dasturlari, manba kodi yoki obyekt kodi shaklidan qat'i nazar, 1971-yilgi Bern konventsiyasi doirasida adabiy asarlar sifatida himoya qilinadi.". Bu xalqaro miqyosda ilk bor shartnoma darajasida aniq qilib yozilgan norma bo'lib, barcha WTO a'zo davlatlarini dasturlarni mualliflik huquqi obyekt sifatida tan olishga undagan hisoblanadi. Agar ilgari ayrim davlatlar qonunchiligida dasturlar himoyasi bo'yicha noaniqlik bo'lgan bo'lsa, TRIPSDan so'ng bunday davlatlar o'z qonunlariga tegishli o'zgartirishlar

³ TRIPS Agreement – Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, 1994-yil, Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization.

kiritishlari kerak edi. Masalan, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshida mualliflik huquqi qonunlariga dasturlarni qo'shdilar. O'zbekiston ham 1994-yildayoq maxsus qonun qabul qilib, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini” mualliflik huquqi obyektlari qatoriga kiritdi. Bu o'z navbatida TRIPS talablariga ham mos keluvchi qadam edi.

TRIPS kelishuvi kompyuter dasturlariga qo'shimcha mulkiy huquqlar berilishi kerakligini ham ta'kidlaydi. Jumladan, TRIPSning 11-moddasi a'zolardan kamida kompyuter dasturlari va kinofilmlarga nisbatan ijara (rental) huquqini ta'minlashni talab qiladi. Ya'ni, dastur muallifi (yoki huquq egasi) dasturlarining asl nusxasi yoki ko'paytirilgan nusxalarini tijorat maqsadida ijaraga berilishini ruxsat etish yoki man etish huquqiga ega bo'lishi lozim. Ilgari bunday huquq Bern konventsiyasida nazarda tutilmagan edi, chunki an'anaviy adabiy va san'at asarlari uchun ijara masalasi dolzarb bo'lmagan. Lekin dasturiy ta'minot sohasida 1980-90 yillarda dasturlarni va videoo'yinlarni ijaraga berish biznesi paydo bo'lgach, mualliflar manfaatlarini himoyalash maqsadida ijara huquqini berish zarur deb topildi. TRIPS bu normani joriy etib, barcha a'zo davlatlarda dasturlar uchun ijara huquqi e'tirof etilishini ta'minladi. Keyinchalik Butunjaxon mualliflik huquqi shartnomasida ham xuddi shunday qoida mustahkamlab qo'yildi.⁴

TRIPS kelishuvi nafaqat huquqlar, balki ularning ijro etilishini (enforcement) ham qamrab oladi. Ushbu kelishuvning III qismi intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish, buzilishiga qarshi choralar ko'rish yuzasidan minimal talablarni belgilaydi. Xususan, mualliflik huquqi buzilishiga doir ishlar bo'yicha

⁴ WIPO. Standing Committee on Copyright and Related Rights – Reports and Materials, 2022.

sud tartibini soddalashtirish, samarali huquqiy himoya vositalarini (jarimalar, kompensatsiya, noqonuniy nusxalarni musodara qilish va yo‘q qilish kabi) joriy etish har bir a‘zodan talab qilinadi. Shu bilan birga, bojxona chegaralarida kontrafakt mahsulotlarni ushlash mexanizmlari, jinoiy javobgarlik choralari kabi qoidalar ham kiritilgan. Bu talablar dasturlarni noqonuniy ko‘chirib tarqatishga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ko‘plab davlatlar, xususan, dasturiy ta‘minot piratligi yuqori bo‘lgan mintaqalar, TRIPSGa muvofiq o‘zlarining ijro-intizom mexanizmlarini kuchaytirdilar. Misol uchun, Rossiya 2000-yillarda WTOga qo‘shilish jarayonida mualliflik huquqi buzarlklariga qarshi jazo choralari sezilarli ravishda kuchaytirdi, Xitoy ham TRIPS majburiyatlari doirasida dasturiy mahsulotlar kontrafaksiyasiga qarshi maxsus kampaniyalar o‘tkazdi. Albatta, haqiqatda ijro samaradorligi darajasi har bir davlatda turlicha bo‘lib qolmoqda, ammo TRIPS hujjat sifatida barcha a‘zo mamlakatlarda minimal standartlarni o‘rnatgani bilan ahamiyatlidir.⁵

TRIPS, shuningdek, eng ko‘p qulaylik berish rejimi (MFN) qoidasini intellektual mulkka tatbiq etdi: bir WTO a‘zosi biror mamlakat fuqarolariga intellektual mulk borasida qandaydir ortiqcha imtiyozlar (masalan, qo‘shimcha himoya muddati yoki soddalashtirilgan tartiblar) bersa, bu imtiyozlarni barcha WTO a‘zolari fuqarolariga tatbiq etishi lozim. Bu qoida mualliflik huquqida yangilik bo‘lib, avval Bern konventsiyasida yo‘q edi. MFN qoidasi, masalan, ikki tomonlama kelishuvlar orqali bir davlat faqat yaqin qo‘shnisiga bergan qulaylik endi avtomatik ravishda boshqa a‘zo davlatlarga ham tatbiq qilinishini ta‘minlaydi.

⁵ V. Ginsburg. “Fair Use for Free, or Permitted-but-Paid?” Berkeley Technology Law Journal, 2006.

Natijada intellektual mulk himoyasi sohasida global miqyosda yanada birxillik yuzaga keldi.

Yana bir jihat shundaki, TRIPS faqat mualliflik huquqinagina emas, balki patent va tijorat siri (konfidensial axborot) kabi boshqa intellektual mulk toifalarini ham qamrab oladi. Dasturiy mahsulotlar uchun patent muhofazasi masalasi anchayin murakkab: ayrim davlatlar (masalan, AQSh, Yaponiya) dasturiy ta'minot bilan bog'liq ixtirolarni patent bilan himoyalashga moyil bo'lsa, Yevropa Ittifoqida "dasturlarning o'zi" patentlanmaydi (faqat texnik yechim qismi patentlanishi mumkin). TRIPS 27-moddasida barcha sohalardagi ixtirolarga patent berilishi kerakligini qayd etsada, dasturiy mahsulotlarning patentlanishi masalasini aniq ochib bermaydi – bu masalani har bir davlat o'zi hal qiladi. Shu sabab, TRIPS doirasida dasturiy ta'minot asosan mualliflik huquqi bilan himoyalanaadi deb qarash to'g'ri bo'ladi, qo'shimcha ravishda esa tijorat siri (masalan, dastur manba kodini sir saqlash) va brend (tovar belgilari) orqali ham dasturiy mahsulotlar muhofaza qilinishi mumkin. TRIPSning 39-moddasi konfidensial axborotni himoya qilishni talab qiladi – dastur kodi sir sifatida saqlansa, u ham huquqiy muhofaza ostida bo'ladi. Bu holat amaliyotda dasturlarni himoya qilishning bir necha qatlamli yondashuvini qo'llash imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, TRIPS kelishuvi kompyuter dasturlarini xalqaro darajada muhofaza qilishda burilish yasadi. U dasturlarni mualliflik huquqi bilan himoyalashni jahondagi deyarli barcha davlatlar uchun majburiy standartga aylantirdi, dasturlar mualliflarining yangi huquqlarini (ijara huquqi kabi) ta'minladi hamda bu huquqlarni amalga oshirish bo'yicha minimal talablarni o'rnatdi. TRIPS tufayli ilgari mualliflik huquqi tizimiga unchalik e'tibor bermagan

ayrim davlatlar ham dasturlar himoyasini jiddiy qabul qila boshladi. Shunday bo'lsa-da, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, internet asriga kelinishi bilan mualliflik huquqining yangi muammolari kun tartibiga chiqdi. Bu esa 1996-yilda qabul qilingan Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi (WCT)ga turtki bo'ldi.⁶

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi (WCT) va dasturlar himoyasi

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi (WCT – World Intellectual Property Organization Copyright Treaty) 1996-yil dekabr oyida Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti doirasida qabul qilingan bo'lib, u Bern konvensiyasining maxsus qo'shimcha bitimi sifatida qaraladi. Ushbu shartnoma raqamli asrga mos yangi xalqaro qoidalarini joriy etish va oldingi qoidalarini aniqlashtirish maqsadida tuzilgan. WCT mazmunan Berndan mustaqil hujjat bo'lsa-da, unda ishtirok etuvchi davlatlar baribir Bern konvensiyasining barcha asosiy normalariga rioya etishi shartligi ko'rsatilgan (1-modda). Demak, WCT Bern konvensiyasiga zid bo'lmagan holda, balki uni to'ldiruvchi tarzda amal qiladi.

WCTning eng muhim yangi qoidalaridan biri bu 4-modda ya'ni Kompyuter dasturlari moddasidir. Unda aniq va qisqa qilib: “Kompyuter dasturlari Bern konvensiyasining 2-moddasi ma'nosida adabiy asarlar sifatida himoya qilinadi. Bunday muhofaza dasturlar ifodasining usuli yoki shaklidan qat'i nazar qo'llanadi.” deb belgilangan.⁷ Ko'rinib turibdiki, bu qoida mazmunan TRIPS 10-moddasiga deyarli aynan mos keladi. Aslida, TRIPS ikki yil avval qabul qilingan

⁶ G. Dinwoodie, R. Dreyfuss. A Neofederalist Vision of TRIPS, Oxford University Press, 2012.

⁷ WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996-yil, Geneva

bo'lsa-da, Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti shartnomasi matnida ham kompyuter dasturlarini alohida qayd etish ularning mualliflik huquqi obyeksi ekanini yana bir bor tasdiqlash va Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti doirasida ham buni mustahkamlash maqsadida bo'lgan. WCTga qo'shilgan davlatlar, shu jumladan Bern konventsiyasiga a'zo bo'lmagan (lekin deyarli barcha mamlakatlar Bernga a'zo bo'lgani uchun bu kam uchraydi), o'z qonunchiligida dasturlarni albatta muhofaza qilishi lozim.

WCT shuningdek 5-modda orqali ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi bilan himoyalanihini tasdiqlaydi (agar ular mazmuni tanlovi yoki tartibga solinishiga ko'ra ijodiy asar darajasida bo'lsa). Bu ham TRIPS 10-moddasining 2-bandiga hamohang norma bo'lib, raqamli davrda ma'lumotlar bazalari (masalan, onlayn ma'lumotlar to'plamlari) mualliflik huquqi bilan himoyalanihini kafolatlaydi.

WCTning yana bir muhim jihati – u mualliflik huquqi subyektlariga yangi mulkiy huquqlar berilishini yoki aniqroq aytganda, raqamli muhitga mos holda huquqlarni kengaytirilishini ta'minladi. Xususan, 6-modda muallifning asarlarini tarqatish huquqini (right of distribution) xalqaro darajada mustahkamladi. Bern konventsiyasida asarlarni tarqatish (jumladan, sotish va boshqa usulda tarqatish) to'g'risida ochiq norma yo'q edi, faqat ba'zi huquqlar (masalan, nusxa ko'paytirish huquqi) orqali bilvosita qamrab olinar edi. WCT 6-moddasi esa mualliflarga asarlarining nusxalarini jamoatchilikka tarqatishni nazorat qilish huquqini aniq berdi. Bu hozirgi kunda dasturlarni fizik tashuvchilar (disklar) orqali ham, internet orqali yuklab olish ko'rinishida ham tarqatilishida muallif roziligini olishini talab qilish uchun huquqiy asosdir.

WCT 7-modda bevosita ijaraga berish huquqi haqida bo'lib, unda WCT ishtirokchilari kompyuter dasturlari (shuningdek, kinofilmlar va ovoz yozuvlar) mualliflariga tijorat maqsadida ijaraga berishni nazorat qilish huquqini taqdim etishi lozimligi belgilangan.⁸ Ko'rinib turibdiki, bu ham TRIPS 11-moddasiga hamohang. Shunga qaramay, WCT doirasida ham bu norma qayta tasdiqlandi, chunki barcha Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti a'zolari majburiy ravishda WTO a'zosi emas edi (garchi hozir ko'pchilik davlatlar ikkala tashkilotga a'zo bo'lsa ham). Ijara huquqi dasturlar mualliflari uchun muhim bo'lib, ayniqsa dasturiy ta'minotni lizing, kutubxona orqali disklarni vaqtinchalik berish kabi holatlarda muallifning manfaatini himoya qiladi.⁹

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasining

8-moddasida muallifning asarini jamoatchilikka uzatish huquqi (right of communication to the public) zamonaviy shaklda joriy qilingan. Bunda internet orqali yoki boshqa raqamli tarmoqlar orqali asarlarga (shu jumladan dasturlarga) ochiq ulanishni taqdim etish ham muallifning maxsus huquqi sifatida tan olinadi. Masalan, veb-sayt orqali dasturiy ta'minotni tarqatish yoki bulut xizmatida dasturdan foydalanirish muallifning 8-modda doirasidagi huquqiga daxldor hisoblanadi.

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi raqamli davrning tahdidlariga qarshi yordamchi huquqiy choralarni ham nazarda tutadi. Shu jumladan, 11-modda texnologik himoya vositalarini chetlab o'tishga (circumvention) qarshi majburiyat yuklaydi. Ya'ni, davlatlar mualliflik huquqi

⁸ WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996-yil, Geneva

obyektlarini himoya qilish uchun qo'llaniladigan texnik vositalarni (masalan, dasturiy ta'minotdagi litsenziya kalitlari, DRM – raqamli huquqlarni boshqarish tizimlari) buzadigan yoki chetlab o'tadigan harakatlarni taqiqlovchi qonun normalarini qabul qilishlari kerak. Bunday qoidalar dasturiy ta'minotni ruxsatsiz nusxalashni qiyinlashtiruvchi mexanizmlarni huquqiy jihatdan himoya qiladi. Masalan, AQSh 1998-yilda qabul qilgan Raqamli mingyillik mualliflik huquqi akti (DMCA) bilan Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasining 11-moddasi talablarini milliy qonunchiligiga kiritdi – ushbu qonun dasturlarni va boshqa raqamli kontentni himoyalovchi kodlarni buzishni (masalan, DVD himoyasini sindirish, dasturning litsenziya tekshirishini chetlab o'tish) noqonuniy deb e'lon qildi. Yevropa Ittifoqi ham 2001-yilgi Axborot jamiyati to'g'risidagi Direktivasi orqali shunga o'xshash normalarni joriy etdi.

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasining

12-moddasi mualliflik huquqiga oid axborotni olib tashlash yoki o'zgartirishga qarshi qoidalarni o'z ichiga oladi. Masalan, dastur fayliga biriktirilgan mualliflik huquqi to'g'risidagi ma'lumotlarni (huquq egasining nomi, litsenziya shartlari kabi) ataylab o'chirish yoki soxtalashtirish taqiqlanadi. Bu qoidalar ham dasturlar mualliflarining huquqlarini himoya qilishga ko'maklashadi, chunki piratlar ko'pincha dasturdan mualliflik to'g'risidagi belgi va identifikatorlarni olib tashlab, uni “egasiz” ko'rinishga keltirishga urinadilar.

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi qabul qilinganidan so'ng, ko'plab davlatlar uning qoidalarini o'z milliy qonunchiligiga implementatsiya qildilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, AQSh

DMCA (Digital Millennium Copyright Act) qabul qildi, Yevropa Ittifoqi 2001-yilda Informationsion jamiyat mualliflik huquqi direktivasini (2001/29/EC) kuchga kiritdi.¹⁰ Ushbu hujjat orqali Yevropa Ittifoqi davlatlari raqamli kontentni himoyalash, texnologik vositalarni chetlab o'tishga qarshi choralar ko'rish, mualliflik axborotini muhofaza qilish kabi qoidalarni birxillashtirdi. Bu esa dasturlarni himoya qilishni ham kuchaytirdi. Chunonchi, Yevropa Ittifoqining alohida Kompyuter dasturlari huquqiy muhofazasi to'g'risidagi 1991-yilgi Direktivasi (91/250/EEC, keyinchalik 2009/24/EC bilan yangi tahrirda) ham mavjud bo'lib, u dasturlar muhofazasini maxsus tartibga soladi.¹¹ Mazkur direktivada dasturlar mualliflariga reproduksiya, adaptatsiya, tarqatish (ijara huquqini ham o'z ichiga olgan holda) kabi huquqlar berilishi mustahkamlangan.

Foydalanuvchiga bir nusxa zaxira ko'chirmasini olish huquqi, dastur ishlash tamoyillarini o'rganish uchun uni teskari muhandislik (reversing) qilishga cheklangan ruxsat, hamda mustaqil yaratilgan dastur bilan o'zaro moslashuvchanlik (interoperability) maqsadida dastur kodini dekompiletsiya qilishga ruxsat beruvchi ba'zi istisnolar ham nazarda tutilgan. Masalan, foydalanuvchi foydalanishga haqli bo'lgan dasturining zaxira nusxasini qilishga shartnomaviy taqiq qo'yib bo'lmaydi, yoki qonuniy foydalanuvchi dastur kodidagi g'oyalar va printsiplarni tushunish uchun dasturni ishga tushirib uning ishlashini tahlil qilishga haqli. Shuningdek, boshqa mustaqil dastur bilan bog'lanish (o'zaro ishlash) uchun zarur bo'lgan qismlarni teskari muhandislik qilishga ham ma'lum shartlar asosida ruxsat etiladi. Bu kabi istisnolar, aslida, Bern konventsiyasidagi uch bosqichli testga mos holda ishlab chiqilgan bo'lib, dasturlar himoyasida

¹⁰ U.S. Digital Millennium Copyright Act (DMCA), 1998.

¹¹ European Commission. "Directive 2009/24/EC on the Legal Protection of Computer Programs.

muallif huquqlari va jamiyat manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgandir.

Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasining joriy qilinishi natijasida xalqaro darajada kompyuter dasturlarining muhofazasi yanada mustahkam va zamon talablarga mos bo'ldi. Aytish joizki, WCT hali hamma davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan emas, lekin mualliflik huquqi sohasida yetakchi davlatlar (AQSh, YeI, Yaponiya va boshqalar) unga qo'shilgan va amaliyotda uning qoidalariga amal qiladilar. Hozirgi kunga kelib, raqamli sohadagi yanada yangi muammolar (masalan, bulutli xizmatlar, ochiq kodli dasturlar litsenziyalari, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan dasturlar va h.k.) paydo bo'lsa-da, xalqaro maydonda ularni tartibga soluvchi maxsus yangi konventsia yo'q. Shunday bo'lsa-da, mavjud Bern konventsiyasi, TRIPS va WCTdagi qoidalar yangi vaziyatlarga moslab talqin qilinmoqda.

Xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilik va amaliyotga ta'siri

Yuqorida ko'rib chiqilgan uch asosiy xalqaro hujjat – Bern konventsiyasi, TRIPS va Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi – kompyuter dasturlarini mualliflik huquqi bilan himoyalashning global standartlarini yaratdi.¹² Ushbu standartlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan o'z milliy qonunlarida tatbiq etilgan yoki etilmoqda. Natijada, ayrim farqlarga qaramay, umumiy qoidalar hamma joyda o'xshash: kompyuter dasturi adabiy asar sifatida tan olinadi; dastur muallifiga asarni ko'paytirish, o'zgartirish, tarqatish, ijara va omma uchun uzatish huquqlari beriladi; mualliflik huquqi

¹² WIPO Intellectual Property Handbook: Policy, Law and Use, WIPO Publication No. 489(E), Geneva, 2004 yil.

himoyasi asar yaratilishi bilan avtomatik ravishda paydo bo'ladi va muayyan muddat davom etadi; huquqbuzarliklarga qarshi huquqiy choralar ko'riladi.¹³

Albatta, har bir mamlakat ushbu xalqaro majburiyatlarni o'ziga xos tarzda milliy qonunchilikka implementatsiya qiladi. AQSh misolida, 17 U.S.C. (AQSh mualliflik huquqi to'g'risidagi kodeksi) ga 1980-yilda kiritilgan tuzatishlar orqali "kompyuter dasturi" tushunchasi va uning mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi rasman belgilandi. Keyinchalik DMCA (1998) orqali texnologik vositalarni chetlab o'tishga qarshi choralar joriy etilib, Butunjaxon Intellektual Mulk Tashkiloti mualliflik huquqi shartnomasi talablariga javob berildi. AQSh sud amaliyotida dasturlar mualliflik huquqi bo'yicha juda ko'p ishlar ko'rib chiqilgan, ular qatorida Apple v. Franklin (1983), Sega v. Accolade (1992), Google v. Oracle (2021) kabi ishlar dastur kodi himoyasining qamrovi, odil foydalanish (fair use) kabi konsepsiyalarni aniqlashtirib berdi. Masalan, Sega v. Accolade ishida sud dastur kodini o'rganish uchun teskari muhandislik qilish muayyan sharoitda odil foydalanish bo'lishi mumkinligini tan oldi – bu esa AQSh qonunchiligida (xalqaro kelishuvlarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmasa-da) dasturlarga nisbatan ham balansni ta'minlaydi.

Yevropa Ittifoqi davlatlari ham bir qancha direktivalar vositasida dasturlar mualliflik huquqini birxillashtirdi. Yuqorida tilga olingan 1991-yilgi Direktivadan tashqari, Yevropa Ittifoqining 2009-yilgi yangi dasturiy ta'minot direktivasi (2009/24/EC) barcha a'zo davlatlarda kompyuter dasturlarini huquqiy muhofazasini yagona me'yorlarga bog'lashni maqsad qilgan. Unda dasturlar aynan matn yoki kod shaklida ifodalangan g'oya va printsiplar emas, balki ifoda sifatida

¹³ P. Samuelson. "Why Copyright Law Excludes Systems and Processes," Berkeley Tech. L.J., Vol. 85, 2010.

himoyalaniishi qat'iy belgilangan – bu esa TRIPS va Butunjaxon Mualliflik huquqi Shartnomasidagi “faqat ifodalar himoyalaniadi, g'oyalar emas” degan tamoyilning Yevropa qonunchiligidagi ifodasidir. Yevropa Ittifoqida ham 2001-yilgi Axborot jamiyati direktivasi orqali Butunjaxon Mualliflik huquqi Shartnomasi qoidalari (ijara huquqi, texnik vositalarni chetlab o'tmaslik va hokazo) tatbiq qilindi. Bundan tashqari, mualliflik huquqini amalga oshirish (enforcement) bo'yicha 2004-yilgi Direktivada dasturlar piratligiga qarshi fuqaroviy va jinoiy javobgarlik choralari mustahkamlandi.

Dunyoning boshqa hududlarida ham shunga o'xshash manzara kuzatiladi. Yaponiya 1980-yillarda dasturlarni mualliflik huquqi bilan himoya qilishni joriy qilgan va hozirgacha qonunchiligini WCT va TRIPSGa muvofiq ravishda yangilab kelmoqda¹⁴. Rossiya sobiq ittifoq davrida Bern konventsiyasida bo'lmagan bo'lsa-da, 1995-yilda Bern konventsiyasiga qo'shildi va 2008-yilda qabul qilingan Fuqarolik kodeksida intellektual mulk bo'limida kompyuter dasturlari mualliflik huquqi bilan himoyalaniishini mustahkamlandi.¹⁵ Xitoy Bern konventsiyasiga 1992-yilda kirdi, TRIPSGa 2001-yilda qo'shildi – ushbu davrgacha Xitoy mualliflik huquqi qonunida dasturlar himoyasiz edi, lekin endilikda Xitoyda ham dasturlar rasmiy ravishda mualliflik huquqi obyektidir va qaroqchilikka qarshi qonunlar bor. Shunga qaramay, ba'zi davlatlarda qonunchilik mavjud bo'lsa-da, amalda dasturiy ta'minot piratligi darajasi yuqoriligicha qolmoqda – bu asosan ijro intizomi va huquqni qo'llash muammolariga bog'liq.

Kompyuter dasturlarining huquqiy muhofazasi samaradorligini baholashga doir xalqaro reytinglar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya,

¹⁴ UNCTAD-ICTSD. Resource Book on TRIPS and Development, Cambridge University Press, 2005.

¹⁵ А. И. Савенков. Компьютерное право России, Норма, 2020.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Masalan, AQSh Savdo palatasi huzuridagi Global intellektual mulk indeksi reytingida 2023-yilda AQSh va Buyuk Britaniya birinchi o'rinlarni egallagan, ulardan keyin Frantsiya, Germaniya, Shvetsiya kabi mamlakatlar kelgan. Bu davlatlarning mualliflik huquqi tizimi, jumladan dasturlar himoyasi tizimi rivojlangan, huquqni muhofaza qilish organlari tajribali, sud amaliyoti boy va qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirib boriladi. Aksincha, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda hali ham mualliflik huquqini buzish, litsenzijasiz dasturlar ishlatish hollari keng tarqalgan – bu esa u yerdagi huquqiy himoya de-yure mavjud bo'lsa-da, de-facto sust ishlashini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro shartnomalarda belgilangan standartlarni qabul qilish muhim bo'lsa-da, ularni hayotga tatbiq etish, bajarilishini ta'minlash masalasi ham mualliflik huquqi tizimining ajralmas qismi ekani ko'rinadi.¹⁶

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Bern konventsiyasi, TRIPS kelishuvi va Butunjaxon Mualliflik huquqi Shartnomasi kompyuter dasturlarini muhofaza qilishning xalqaro huquqiy me'yorlarini shakllantirgan va ularning o'рни beqiyosdir. Bern konventsiyasi ushbu jarayonning poydevorini qo'yib, asarlarni (jumladan, dasturlarni) mualliflik huquqi bilan himoyalash g'oyasini xalqaro miqyosda qaror toptirdi. TRIPS kelishuvi uni yanada rivojlantirib, dasturlar muhofazasini deyarli butun dunyo bo'ylab majburiy standartga aylantirdi, yangi huquqlar va ijro mexanizmlarini joriy qildi. Butunjaxon Mualliflik huquqi Shartnomasi esa raqamli texnologiyalar davrida ushbu himoyani mustahkamlab,

¹⁶ А. А. Ефимова. Правая защита програм для ЭВМ, Юститсинформ, 2015.

zamonaviy tahdidlarga qarshi qo'shimcha kafolatlar berdi. Uchala hujjat uyg'un holda ishlagan holda, bugungi kunda dasturiy ta'minot yaratuvchilari o'z mahsulotlarini global miqyosda muhofaza qilishlari uchun mustahkam huquqiy asosi mavjud. Aynan shuning uchun dasturlarni yaratishga intellektual va moliyaviy sarmoya kiritish imkoniyati kengaymoqda, xalqaro savdo va texnologiya almashinuvida mualliflar huquqlari kafolatlanmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, mazkur xalqaro shartnomalar kompyuter dasturlarining huquqiy himoyasini tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos darajada katta va ular milliy qonunchiliklarga ham doimiy ta'sir o'tkazib kelmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Bern konvensiyasi (Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works), 1886-yil, oxirgi o'zgartirish 1971-yil (Parij).
2. C. Geiger. "Software as a Copyright Work," IIC - International Review of Intellectual Property and Competition Law, Vol. 45, 2014.
3. TRIPS Agreement – Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, 1994-yil, Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization.
4. WIPO. Standing Committee on Copyright and Related Rights – Reports and Materials, 2022.
5. V. Ginsburg. "Fair Use for Free, or Permitted-but-Paid?" Berkeley Technology Law Journal, 2006.

6. G. Dinwoodie, R. Dreyfuss. A Neofederalist Vision of TRIPS, Oxford University Press, 2012.
7. WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996-yil, Geneva.
8. WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996-yil, Geneva.
9. Resource Book on TRIPS and Development, Cambridge University Press, 2005.
10. U.S. Digital Millennium Copyright Act (DMCA), 1998
11. European Commission. "Directive 2009/24/EC on the Legal Protection of Computer Programs
12. WIPO Intellectual Property Handbook: Policy, Law and Use, WIPO Publication No. 489(E), Geneva, 2004 yil.
13. P. Samuelson. "Why Copyright Law Excludes Systems and Processes," Berkeley Tech. L.J., Vol. 85,2010.
14. UNCTAD–ICTSD. Resource Book on TRIPS and Development, Cambridge University Press, 2005.
15. А. И. Савенков. Компьютерное право России, Норма, 2020.
16. А. А. Ефимова. Правовая защита программ для ЭВМ, Юститсинформ, 2015.